

SIFATLI TA'LIM JARAYONI –O'QITISH VA O'RGANISH JARAYONLARINING MEXANIK YIG'INDISI SIFATIDA

M. Botirova

QDPI o'qituvchisi

Muratova Zulxumorxon

Dang'ara tuman 36 -maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Ta'lim jarayoni"ni tushunchani yoritishga qaratilgan bo'lib, bevosita biron o'quv yurti bilan bog'liq o'quv jarayoni, tahsil olish, tarbiyalanish, har tomonlama rivojlanish kabi fikrlar bayon etilgan. Mazkur jarayonda o'quvchilarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonining asosiy vazifasi yangi ilmiy haqiqatlarni kashf etilishi keltirilgan.

Kalit so'z: Ta'lim, tarbiya o'quvchi, bilim, rivojlantirish, shaxs.

Sifatli ta'lim o'quvchilarning etarli darajada tarbiyallanganliklari bilan bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayoni o'zida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarning mushtarakligini namoyon etadi. Ta'limning tarbiyaviy va ta'limiy vazifalarining yaxlitligini tasdiqlovchi omillardan biri ta'lim metodlari tarbiya metodlarining ayrim tarkibiy qismi sifatida namoyon etilishi bo'lsa, ikkinchidan, tarbiya metodlarining o'zi ta'lim olishni rag'batlantirish metodlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya shaxsning rivojlanishiga ko'maklashadi. Agar o'quvchilar maxsus rivojlantiruvchilik yo'nalishiga ega bo'lib, ular aqliy rivojlanish jarayoniga jalb etilsa, ta'limning rivojlantirish vazifasi samarali amalga oshirilgan bo'ladi.

"Ta'lim jarayoni" keng tushuncha bo'lib, bevosita biron o'quv yurti bilan bog'liq o'quv jarayoni, tahsil olish, tarbiyalanish, har tomonlama rivojlanish kabi tashkil etuvchilardan tarkib topadi. Mazkur jarayonda o'quvchilarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Ta'lim jarayonining asosiy vazifasi yangi ilmiy haqiqatlarni kashf etish sanaladi. Bilimlarning ko'pgina turlari o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan ob'ektlarni bevosita ko'rish yo'li bilan emas, balki o'qituvchining hikoyasi, tasvirlashi orqali idrok etish yo'li bilan egallanadi.

O'quv jarayonini tashkil etish davomida talabalarning bir-birini to'ldirib boruvchi vositalarni qo'llashi ularni sifat jihatidan yangi darajaga ko'taradi. Bu jarayon davomida ta'lim muassasasi oldida turgan masalalar kompleks amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonining tarkibiy tuzilishini ko'rib chiqish davomida uni tuzilishning asosiy, tarkibiy qismlarini va ularning orasidagi aloqalarni aniqlash zarur. Ta'lim shaxs faoliyatining turlaridan biri hisoblanadi. U

albatta ma'lum darajada belgilangan shart-sharoitlarda amalga oshadigan, o'qituvchi bilan o'qitilayotganning o'zaro ta'sirlarini nazarda tutadi.

Ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki jarayondan – o'qitish va o'rganishdan iborat. Ta'lim o'qituvchi va o'qitilayotganlarning bir vaqtdagi faoliyatlarisiz, ularning o'zaro didaktik bog'liqligisiz tashkil etilmaydi. O'qituvchi bilimni etkazishda qanchalik faollik ko'rsatmasin, agar bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan o'quvchilarning o'zlari ongli yondashmasa, u holda ta'lim jarayoni amalga oshmaydi. SHuning uchun ta'lim jarayonida pedagogning o'quvchiga oddiygina ta'siri emas, balki, ularning hamjihatliklari ta'minlanishi kerak.

SHu bilan birga, ta'lim jarayoni o'qitish va o'rganish jarayonlarining mexanik yig'indisi hisoblanmaydi. Bu sifat jihatdan yangi, bir butun hodisa bo'lib, uning mazmunini turli-tuman shakldagi didaktik o'zaro ta'sirlari aks ettiradi. Ushbu jarayonning bir butunligi, yaxlitligida o'qitish va o'rganish maqsadlarining umumiyligi, shunday o'rganishsiz o'qitishning mavjud bo'lishi mumkin emasligi yashiringan bo'ladi. Ta'lim faqat bilish xarakteridagi jarayongina emas, balki o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqoti ham demakdir. Bir turdagi ma'lumotlar o'quvchilarning ichki dunyosiga turlicha ta'sir etadi. Ta'lim jarayonidagi muloqot o'rganishning zarurligini izohlashda juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'qishga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi, faol o'rganish uchun qulay axloqiy-psixologik shart-sharoitlarning yaratilishiga xizmat qiladi.

O'qituvchining o'z faniga ijobiy munosabati o'quv jarayonida o'quvchilarga o'z vaqtida yordam qo'lini cho'zishi, ularning yutuqlari, muvaffaqiyatlarini o'z vaqtida va haqqoniy baholashi, og'ir vaziyatlarda o'zini tuta bilishi bilimlarni samarali o'zlashtirish jarayoniga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda o'qituvchini o'zlari uchun ideal sifatida tanlab, bilimlarni izchil o'qib-o'rganish, mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchilar asosiy diqqat-e'tiborlarini faqatgina o'quv faoliyatiga jalb etsa, ta'sirning natijasi etarli bo'lmasligi mumkin. Aksincha, qulay muloqot ta'minlanib, shart-sharoitlar yaratilib, ammo o'quv faoliyati tashkil etilmasa, bunday hollarda ham kuch sarflashlar samarasiz bo'ladi. Mana shuning uchun ham ta'limning mohiyatini ochish davomida muloqot va bilimning, ma'lumotning mushtarakligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. SHaxsning rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasi faqatgina ta'lim hamda tarbiyalash vositasida emas, balki uni qurshab turgan muhit, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy foydali mehnat, jismoniy mashqlar, o'yinlar va boshqa shunga o'xshash darsdan tashqari mashg'ulotlar yordamida ham amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlari: maqsadga muvofiqlik, rag'batlantirish, mazmunga egalik, tezkor faoliyat, nazorat, baholash va natija bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonining ushbu tarkibiy qismlari pedagog va o'quvchilarning o'z oldilariga maqsad qo'yishdan tortib, ularnin amalga oshirish va haqqoniy natijalarni kafolatlashiga qadar bo'lgan bog'liqlikni rivojlanishini aks ettiradi.

Ta'limning mazmuni DTS, o'quv rejasi, davlat o'quv dasturlari va mazkur fan yuzasidan bo'lgan darslik bilan belgilanadi. Ayrim darslarning mazmuni, mundarijasi o'qituvchi

tomonidan qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda aniqlashtiriladi. Fanning mazmunida o'quvchilarning qiziqishlari ularning "tayyorgarlik darajasi", ishlab chiqarish va ijtimoiy muhitning o'ziga xosliklarini aks ettirish zaruriyati aks etishi zarur. Nazorat bir vaqtning o'zida ta'lim vazifalarining o'qituvchi tomonidan hal etib borishi va o'quvchilar javoblari hamda o'quv operatsiyalari bajarilishining to'g'riligini nazarda tutadi. Nazorat og'zaki, yozma, amaliy mashg'ulotlar va boshqa amaliy ishlar yordamida imtihonlar, sinovlar, so'rovlar, savol-javoblar o'tkazilishi orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini nazorat etish esa, o'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish darajasini o'z-o'zlarida tekshirish ko'rinishida amalga oshiriladi. Mashqlar, topshiriqlarni bajarilishining to'g'riligini teskari yo'li bilan masalalarda olingan javoblarning hayotiy voqelikka muvofiqligini baholash yordamida nazoratdan o'tkazilishi amalga oshiriladi.

Yosh, o'z ish faoliyatlarini endigina boshlayotgan o'qituvchilarga ishlarining birinchi bosqichlarida mashg'ulotlarini bir qancha darajada batafsilroq rsjalashtirishga to'g'ri keladi. Ya'ni o'quv, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xarakterdagi asosiy vazifalarni o'zida birlashtirgan holda darsning maqsadini qayd etish, so'rov davomida foydalaniladigan asosiy savollarni ham qisqacha qayd etib o'tishi, bilimlarni qo'llash va mustahkamlash uchun ishlanadigan mashqlarning tartib raqamlarini ko'rsatishi, uy ishi uchun topshiriqlarning mazmunini, adabiyotlar, jihozlarning nomi va sanog'ini ko'rsatishi lozim.

O'qituvchining belgilangan rejani bajarish yuzasidan tashkil etadigan o'quv ishlari tayyorlov va bajarish bosqichlariga bo'linadn. Darsga tayyorlanish davomida o'qituvchi o'z imkoniyatiga qarab quyidagilarni ta'minlaydi: ta'limning zarur bo'lgan texnik vositalarini, ko'rgazmali qurollar, qo'llanmalarni, didaktik va tarqatiladigan materiallarni tayyorlaydi; murakkabliklar vujudga kslishini oldini olish va eng muhim joylarni tanlab olish uchun navbatdan tashqari, dastlabki diafilmlarni ko'rish, ko'rgazmalarni qarab chiqish, tajribalarni amalga oshirish ishlarini o'tkazadi; oldindagi tajribalar, amaliy ishlar va ko'rgazmalarni tayyorlash ishlariga o'quvchilarnn jalb etadi. Uyda va darsda vaqt sarflanishlarini hisobga olish uchun takrorlash, uy ishlarini hamda o'zlashtirilgan nazariy mavzuni mustahkamlash mashqlarini avvaldan bajarib qo'yishga chorlaydi.

O'qituvchi dastlabki tashkiliy ishlar davomida darsning rejasiga ba'zi bir o'zgarishlar, aniqliklar kiritadi, o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan ba'zi bir topshiriqlarni olib tashlaydi yoki bo'laklarga ajratadi. Bevosita darsda ta'lim jarayonini tashkil etish bir tomondan o'qituvchining o'z harakatlarini tashkil etishni, boshqa tomondan o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish yuzasidan faoliyatlarini tashkil etish, rag'batlantirish hamda o'rganishning zarurligini tushuntirishni nazarda tutadi. O'quvchilarning faoliyatlarini tashkil etish o'zida ularning oldiga o'quv topshiriqlarini qo'yish, o'quvchilar ushbu topshiriqlarni qabul qiladigan qulay sharoitlarni yaratish, amaliy ishlarni tashkil etish davomida o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular oldida turgan faoliyatning turlari haqida tushunarli, aniq yo'l-yo'riqlar berish, o'quv topshi-riqlarini bajarish mobaynida o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish kabilarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirmasan muvaffaqiyatli o'qitishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Rag'batlantirish o'quvchilarning diqqat-e'tiborlarini mavzuga jalb etish hisobiga, shuningdek, havasmandlik, tirishqoqlik, sinchkovlik va bilim olishga qiziqishni uyg'otish hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Dars jarayonida, xususan, uning ikkinchi qismida o'quvchilarning tabiiy ravishda charchashlari yuz berganda va ular toliqish, charchoqni ketkazadigan ta'sirlarga, o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xohishini uyg'otadigan ta'sirga muhtoj bo'lganda foydalanadigan rag'batlantirish usullarini o'ylab topish kerak.

Demak, ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usulidir. SHu sababli ta'lim jarayonining sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Har qanday ta'lim o'zida o'qituvchi va talabaning faoliyati, ya'ni, o'qituvchining o'rgatish hamda talabaning o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish hisoblanadi.

References:

- 1 Najmiddinovna, Rakhimova Feruza, Yuldasheva Malohat Erkinovna, and Karimova Mukarram Khalimovna. "Pedagogical Aspects Of Improving The Socio-Pedagogical Activity Of Students In Multimedia Presentations." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 1584-1590.
- 2 Rakhimova, Feruza. "Model of Developing Communicative and Didactic Competence among Future Teachers." *Eastern European Scientific Journal* 1 (2019).
- 3 Najmiddinovna, Rahimova Feruza, and Muxammadiev Baxromjon Baxtiyorjon o'g'li. "FACTORS AFFECTING THE SOCIAL PEDAGOGICAL ACTIVITY OF MULTIMEDIA." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05 (2022): 114-118.
- 4 Рахимова, Феруза Наймиддиновна. "Value Of Reading Books In Perfection Of Personality." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-7 (2020): 47-49.
- 5 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1365-1369.
- 6 JURNALI, ILMIY-NAZARIY. "ILMIY AXBOROTLARI." *PEDAGOGIKA* 3 (2020).
- 7 Najmiddinovna, Rahimova Feruza. "ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN LESSONS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1370-1374.

- 8 Феруза, Рахимова. "ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТА" ОБЩАЯ ПЕДАГОГИКА"." Актуальные научные исследования в современном мире 5-6 (2018): 97-100.
- 9 Йулдашева, Малохат, and Феруза Рахимова. "ВНЕДРЕНИЕ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." Ученый XXI века (2016): 74.
- 10 Mirkhayitova, Sohiba, and Gulnoza Sharofiddinova Gaipnazarova. "Basics of Technology of the Education Process." E Conference Zone. 2022.
- 11 Sohiba, Mirkhaitova. "DIDACTIC PROCESS PROJECT METHODS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1450-1454.
- 12 Sohiba, Mirkhaitova. "APPLICATION OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TO THE PROCESS OF TEACHING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 932-935.
- 13 Yusupova, N., and S. Mirxaitova. "MUSTAQIL ISHLAR-TALABALAR MUSTAQIL FIKRLASHLARI OMILI SIFATIDA." Сборники конференций НИЦ Социосфера. No. 51. Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro, 2015.
- 14 Botirova, M., S. Mirxayitova, and O. Tolipova. "PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF THE KERATIVENESS OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION ORGANIZATIONS."
- 15 Рахимова, Феруза Нажмиддиновна. "МУЛЬТИМЕДИА ВОСИТАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТГА ТАЪСИРИ ВА ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." E Conference Zone. 2023.
- 16 Khushnazarova, M. N. "PROBLEMS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF EDUCATORS IN PRESCHOOL EDUCATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1406-1409.
- 17 Khushnazarova, M. N. "PROBLEMS OF IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1397-1400.
- 18 Nodirovna, Khushnazarova Mamura. "PRINCIPLES OF INCREASING THE SHARE OF DIFFERENTIATED EDUCATIONAL METHODS IN THE IMPLEMENTATION OF EDUCATIONAL REFORMS IN UZBEKISTAN." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.11 (2022): 126-130.
- 19 Xushnazarova, M. N. "REQUIREMENTS FOR TEACHERS IN ENSURING THE EFFECTIVENESS OF PRESCHOOL EDUCATION." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.06 (2022): 170-175.
- 20 Хушназарова, Мамура Нодировна. "МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА УНИ ЗАМОНАВИЙ ТАЛАБЛАР АСОСИДА

БОШҚАРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ." Современное образование (Узбекистан) 3 (88) (2020): 63-69.

21 Mukhtarovna, Umarova Mukaddas, and Khushnazarova Mamura Nodirovna. "Technologies Of Professional Development Of Students In The System Of Higher Education." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 1999-2003.

22 Хушназарова, М. Н. "Педагогические тенденции в воспитании национального достоинства у учащихся академических лицеев и профессиональных колледжей Республики Узбекистан." Актуальные проблемы современной науки 6 (2012): 100-104.

23 Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE ROLE OF ACTIVE LEARNING METHODS IN INCREASING THE LEARNING ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITIONS." Conferencea (2022): 49-52.

24 Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THEORETICAL AND HISTORICAL BASIS FOR THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS IN INNOVATIVE EDUCATIONAL SETTINGS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05 (2022): 90-93.

25 Yuldasheva, M., M. Nurmatova, and O. Tolipova. "ADVANTAGES OF USING GAME TECHNOLOGIES IN EDUCATION."

26 Erkinovna, Yuldasheva Malohat. "THE SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL CONDITIONS IN THE DEVELOPMENT OF COGNITIVE ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS." E Conference Zone. 2023.

27 Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "THE ROLE OF FATHER AND MOTHER IN RAISING A GIRL." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 854-857.

28 Anvarovna, Djurabaeva Ziroat. "METHODS AND MEANS OF TEACHING." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 877-880.

29 Rakhimberdieva, Dzhuraboeva Ziroat. "Moral education in pedagogy." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 260-263.